
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINI RO'YXATGA OLIH 2023- YILDA O'TKAZILADI

“Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5- fevraldagi PF-5655-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil yetish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 11- noyabr kungi “O'zbekiston Respublikasida 2023- yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish 2023- yil 1-25- noyabr kunlari o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Rejaga asosan aholini ro'yxatga olish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi :

1-5- noyabr kunlari — internet jahon axborot tarmog'i orqali aholini ro'yxatga olish (5 kun);

6-10- noyabr kunlari — internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan respondentlar va ularning uy manzillari ro'yxatini shakllantirish (5 kun);

11-22- noyabr kunlari — aholini ro'yxatga olish varag'i shakllari asosida uyma-uy yurib aholini ro'yxatga olish (12 kun);

23-25- noyabr kunlari — har bir hisob uchastkasidagi uy-joy manzillarining 10 foizini tanlanma ravishda nazorat kuzatuvini asosida o'rganish (3 kun).

So'x tumani statistika bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-03-25 11:53:42